

**KIMYO DARSLARINI O‘TISHDA DARSDAN TASHQARI  
TADBIRLARNING AHAMIYATI**

**F.Sh. Qurbonova**

**N.N. Latifova**

*Navoiy davlat universiteti Kimyo ta'lim yo'nalishi talabalari*

**Ilmiy rahbar: D.A. Karimova**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada kimyo fanini o'qitishda darsdan tashqari tadbirlarning ahamiyati yoritiladi. Viktorinalar, musobaqa-bellashuvlar, kimyo kechalari, shuningdek didaktik o'yinlarning o'quvchilar bilimini mustahkamlash va fanga qiziqishini oshirishdagi o'rni tahlil etiladi. Darsdan tashqari mashg'ulotlarni samarali tashkil etishda o'qituvchining tayyorgarligi, mazmunli materiallar tanlashi hamda o'quvchilarda faollik va izlanuvchanlikni shakllantiruvchi usullardan foydalanish zarurligi ko'rsatib o'tiladi.*

**Kalit so'zlar:** *kimyo ta'limi, darsdan tashqari tadbirlar, didaktik o'yinlar, pedagogik texnologiyalar, o'quvchi faolligi.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматривается значение внеурочных мероприятий при обучении химии. Анализируются викторины, конкурсы, химические вечера и дидактические игры, способствующие закреплению знаний учащихся и повышению их интереса к предмету. Подчеркивается важность профессиональной подготовки учителя, правильного подбора материалов и применения методов, развивающих активность, внимательность и стремление учащихся к познанию.*

**Ключевые слова:** *обучение химии, внеурочные мероприятия, дидактические игры, педагогические технологии, активность учащихся.*

**Annotation.** *This article discusses the importance of extracurricular activities in teaching chemistry. Various formats such as quizzes, competitions, chemistry evenings, and didactic games are analyzed for their role in enhancing students' knowledge and increasing their interest in the subject. The paper highlights the necessity for teachers to be well-prepared, select meaningful materials, and apply methods that promote students' engagement, attentiveness, and motivation for learning.*

**Key words:** *chemistry education, extracurricular activities, didactic games, pedagogical technologies, student engagement.*

Kimyo fanini o'qitishda darsdan tashqari tadbirlarning ahamiyati juda katta. Kimyo fanidan darsdan tashqari tadbirlarni bir necha usullarda: turli xil viktorinalar, musobaqa-bellashuvlar va kimyo kechalari ko'rinishida tashkil qilish mumkin. Darsdan tashqari tadbirlarni qaysi turda tashkil qilishdan qat'iy nazar, o'qituvchi-tashkilotchi qo'lida hamisha yetarlicha ma'lumotlar bo'lmog'i zarur. Shu bilan birgalikda o'qituvchi tadbirda qatnashadigan o'quvchi-yoshlarning bilimli, zukko, aktyorlik qobiliyatiga ega bo'lishiga alohida e'tibor bermog'i lozim. O'qituvchi darsdan tashqari tadbirda turli xil qiziqarli she'r, maqol, intermediya va mo'jizali

kimyoviy tajribalardan foydalansa, tadbirning mazmuni boyib, o'quvchi-yoshlarning kimyo faniga qiziqishi keskin oshishi, shubhasiz.

Zamonaviy o'qitish tizimida ilg'or pedagogik texnologiyalar elementlaridan foydalanib o'qitishni tashkil qilish maqsadga muvofiq keladi, ayniqsa, noan'anaviy usul yordamida tashkil qilingan o'quv mashg'ulotlar o'quvchining bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini yanada o'stiradi. Masalan, maktabda kimyo fanidan darsdan tashqari o'quv mashg'ulotlarda didaktik o'yinlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. "Didaktik o'yinlar" o'yin maqsadi, o'yin qoidasi va o'yin mazmunidan tashkil topadi. O'yinlarda har bir ishtirokchi, o'zi uchun yuqoriroq cho'qqini egallashga harakat qiladi, shu bilan birga ko'proq bilim olishga intiladi, izlanadi.

Quyida kimyo fanidan darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin bo'lgan o'yinlardan ba'zilarini keltiramiz. "Kim diqqatliroq?" o'yinining maqsadi-o'quvchilarning ziyrakligini baholash bo'lsa, mazmuni-doskaga kimyoviy reaksiyalar, formulalar xatoliklar bilan yoziladi. Xatoliklarni topgan o'quvchi diqqatli deb topiladi, bu o'yinni laboratoriya mashg'ulotida ham o'tkazish mumkin. Bunda tajribalarni bajarishda elementar xatoliklarga "yo'l" qo'yiladi (idish og'zini ochiq qoldirish, spirt lampasini boshqa spirt lampasidan yoqish, spirt lampasini yoniq qoldirish va boshqalar). O'quvchilardan bu xatoliklarni tuzatish va ish joyini tozalash talab qilinadi. Hech qanday xatoga yo'l qo'ymagan o'quvchi eng diqqatli hisoblanadi. O'yinni hakam (o'qituvchi) kuzatadi va ballarni doskaga yozib, e'lon qiladi. "Kim tez va yaxshi?" o'yinining maqsadi-kam vaqt sarflab ko'rsatilgan moddalardan aralashma hosil qilishi va aralashmalarni almashtirib, ularni ajratish talab qilinadi. Masalan, quyidagi moddalar berilgan bo'lishi mumkin: 100 ml suvli stakan, shisha tayoqcha, osh tuzi, alyuminiy sim bo'lakchalari, rux va mis bo'lakchalari. Hakam bajariladigan ishni kuzatadi va xatoliklarni (agar yo'l qo'yilgan bo'lsa) ko'rsatadi hamda baholaydi. Bundan tashqari, yana ko'pgina tadbirlarni o'tkazishni taklif qilish mumkin. Birgina tezida bularni aks ettirish qiyin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. D.A. Karimova. Kimyo-mustaqil ishlar. T-2020.
2. D.A. Karimova, M.S. Hotamova, F.S To'xtayev. Kimyo o'qitish metodikasi 1-qism. T-2021.
3. D.A. Karimova, M.S. Hotamova, F.S To'xtayev. Kimyo o'qitish metodikasi 2-qism. T-2024.